

“Asaka” bank (OAJ) tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini, shuningdek shaxsiy yordamchi va dehqon xo’jaliklarini hamda yosh oilalarni bankning o’z mablag’lari hisobidan milliy valyutada mikroreditlash TARTIBI

I. Umumiy qoidalar

II. Mikroreditlarni rasmiylashtirish tartibi

III. Mikroreditlarni berish va qaytarish tartibi

IV. Ajratilgan mikroreditlarni monitoring qilish va maqsadli ishlatilishini nazorat qilish tartibi

V. Yakuniy qoida

Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining "O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida", "Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida", "Mikromoliyalash to‘g‘risida", "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida", "Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida"gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "YOsh oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" 2007 yil 18 maydagi PF-3878-sonli, "Bank tizimini yanada e‘rkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida" 2000 yil 21 martdagi PF-2564-sonli, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" 2011 yil 24 avgustdagi PF-4354-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida"gi PQ-1438-sonli va 2006 yil 23 martdagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarni ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-308-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2009 yil 29 iyuldagi 216-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2012 yil 20 martda 2344-son bilan ro‘yxatga olingan "Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish uchun mikroreditlar berish tartibi to‘g‘risida"gi Nizom, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 2 mayda 1568-son bilan ro‘yxatga olingan "Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun imtiyozli maqsadli mikroreditlar berish tartibi to‘g‘risida"gi Nizom hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga doir boshqa amaldagi me‘yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, "Asaka" bank (OAJ) tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga, shuningdek kam ta‘minlangan oilalarning shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish, shaxsiy yordamchi xo‘jalik yurituvchi jismoniy shaxslarga qishloq xo‘jalik mahsulotlari etishtirish uchun hamda yosh oilalarga imtiyozli shartlar asosida mikroreditlar (keyingi o‘rinlarda - mikroreditlar) berish tartibini belgilaydi.

Ushbu Tartibning maqsadi mikromoliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish, fuqarolarning va tadbirkorlik sub’ektlarining ishchanlik faolligini oshirish uchun ularning moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlarini ta‘minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda yosh oilalar uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Tartib maqsadlarida quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

mikrokredit - eng kam ish haqining ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun beriladigan pul mablag'lari;

shaxsiy yordamchi xo'jalik - shaharcha, qishloq, ovullarda yashovchi fuqarolarga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida uy-joy qurish uchun berilgan uchastkalarining bir qismi - tomorqada oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida oila ehtiyojlari uchun dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini etishtirish hamda oila ehtiyojidan ortiqchasini dehqon bozorlarida sotish bilan shug'ullanadigan oilaviy xo'jalik;

dehqon xo'jaligi - oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa er uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtiradigan va realizatsiya qiladigan, yuridik shaxsni tashkil etgan va tashkil etmagan holda faoliyat yuritadigan oilaviy mayda tovar xo'jaligi;

fermer xo'jaligi - yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan, o'ziga ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt;

oilaviy tadbirkorlik - er-hotin tomonidan ularga birgalikdagi umumiy mulk huquqi bilan tegishli bo'lgan ularning umumiy mulki negizida amalga oshiriladigan hamda er-hotinning va ularga yordam beruvchi oila a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslangan, yuridik shaxs bo'lmagan jismoniy shaxslarning birgalikdagi tadbirkorlik faoliyati. (Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etganyoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonaga sanaladi);

oilaviy korxonaga - uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonaga ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxonaga ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida barpo etiladigan kichik tadbirkorlik sub'ektidir;

hunarmandchilik faoliyati (hunarmandchilik) - yuridik shaxs bo'lmagan jismoniy shaxslarning hunarmandchilik buyumlari yoki tovarlari (ishlari, xizmatlari)ni ishlab chiqarish bo'yicha faoliyati;

mikrofirma - band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 kishidan, xizmatlar ko'rsatish sohasidagi va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida 10 kishidan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlarida 5 kishidan oshmaydigan korxonaga;

kichik korxonaga - band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni engil va oziq-ovqat sanoatida, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatida 100 kishidan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohasida 50 kishidan, fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohasida 25 kishidan oshmaydigan korxonaga;

yakka tartibdagi tadbirkor - tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, xodimlarni yollash huquqsiz, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir;

yosh oila - har biri 30 yoshdan oshmagan, birinchi marta rasmiy nikohdan o'tgan yoshlar kiradi;

imtiyozli davr - kredit bo'yicha asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilgan davr;

1.2. Mazkur tartibda ko'rsatib o'tilgan mikro kreditlar bank tomonidan qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida faqat O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga milliy valyutada beriladi.

1.3. Ushbu tartib, "Asaka" bank (OAJ) tomonidan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha turdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga, shuningdek kam ta'minlangan oilalarning shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga hamda yosh oilalarga ishlab chiqarishni tashkil etish, xizmatlar ko'rsatish va savdo faoliyatini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, shuningdek chorvachilik, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish hamda ixcham issiqhonalar tashkil etish uchun mikro kreditlar berish tartibini belgilaydi.

Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi hisobidan kreditlash, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 19 maydagi 195-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi hisobidan kredit berish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida tartibga solinadi.

1.4. Tadbirkorlik sub'ektlariga mikro kreditlar berish xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznesni va kasanachilikni rivojlantirish yo'li bilan yangi ish o'rinlari yaratish, aholi keng qatlamlarining, shu jumladan qishloq joylarda, moliyaviy resurslardan foydalana olishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

1.5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga mikro kreditlar mijozning bankda asosiy talab qilib olinadigan depozit hisob raqami orqali beriladi. Boshqa banklarning mijozlariga mikro kreditlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Kam ta'minlangan oilalarning shaxsiy yordamchi xo'jalik yurituvchi jismoniy shaxslar va dehqon xo'jaliklari boshliqlari chorvachilikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek shaxsiy yordamchi xo'jalik yurituvchi jismoniy shaxslar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish hamda ixcham issiqhonalar qurish maqsadida mikro kreditlar olish uchun, qoida tariqasida, o'zlari yashab turgan joydagi bank filialiga mikro kredit berishni so'rab ariza bilan murojaat etishlari mumkin.

1.6. Bank filiallari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga, dehqon va fermer xo'jaliklariga, o'z faoliyatini yuridik shaxs tashkil etib amalga oshirayotgan kichik biznesning boshqa sub'ektlariga mikro kreditlar qaytarish muddatini uzaytirish huquqsiz shartnoma asosida 3 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.

Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan mikro kreditlarni qaytarishning eng uzoq muddati, qaytarish muddatini uzaytirishni hisobga olgan holda 12 oydan oshishi mumkin emas.

1.7. Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga mikro kreditlar shartnoma asosida qaytarish muddatini uzaytirish huquqsiz:

- chorvachilikni rivojlantirish uchun 3 yilgacha bo'lgan muddatga;
- shaxsiy yordamchi xo'jalik yurituvchi jismoniy shaxsga mevali daraxtlar va uzum ko'chatlari sotib olish uchun bir yillik imtiyozli davr bilan 3 yilgacha bo'lgan muddatga;
- urug'liklar, mineral o'g'itlar va o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarini sotib olish, ixcham issiqhonalar tashkil etish hamda parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish uchun olti oylik imtiyozli davr bilan 2 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.

1.8. Imtiyozli davr o'rnatilgan holda berilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarzni to'lash imtiyozli davr tugagandan keyingi oydan boshlanadi.

Imtiyozli davr kredit bo'yicha foizlar hisoblash va undirishga tatbiq etilmaydi. Bunda foizlar kredit bo'yicha qarzdorlikning amaldagi qoldig'iga kunlik hisoblab boriladi va oyda bir marta undiriladi.

1.9. Mikro kreditlar qarz oluvchilarga quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga, shu jumladan, qishloq xo'jalik texnikasi sotib olishga, urug'lik, chorva mollari, parranda, em-hashak va omuhta em, veterinariya preparatlari, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini harid qilishga va ko'chatlar sotib olishga;

- xom ashyo va materiallarga birlamchi qayta ishlov berishga, ishlab chiqarish uchun xom ashyo va qo'shimcha materiallar harid qilishga;

- qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirishga;

- parrandachilik, asalarichilikni rivojlantirish hamda ixcham issiqxonalar tashkil etishga;

- mini uskunalar, mehnat qurollari, xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, furnitura sotib olishga;

- xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'at buyumlarini ishlab chiqarishga;

- hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilik mehnatini tashkil etishga;

- servis sohasi, shu jumladan, aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirishga;

- sog'liqni saqlash xizmatini rivojlantirishga;

- sayyohlik industriyasini rivojlantirishga;

- savdo-vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

- kichik ko'lamli, ko'p mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishni tashkil etishga;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan, xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish (ishlarni bajarish) sohasi bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlarini rivojlantirishga beriladi.

1.10. Mikrokreditlar quyidagi maqsadlarga berilishi mumkin emas:

- ilgari olingan kreditlarni yoki har qanday boshqa qarzlarni to'lashga;

- tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarishga;

- qurol - yaroq va narkotik moddalar ishlab chiqarishga;

- lotereyalar va qimor o'yinlarini tashkil etishga;

- ma'muriy xarajatlarni to'lashga, shu jumladan, xizmat avtomobillarini ta'mirlashga;

- idora uchun mebel sotib olishga, uyali telefon sotib olishga, aloqa xizmatlari uchun to'lovga;

- ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun foydalanilmaydigan shaxsiy mulkni sotib olishga;

- qonun bilan taqiqlangan boshqa maqsadlarga.

1.11. Yosh oilalarga mikrokreditlar quyidagi maqsadlarga beriladi:

- oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish uchun;

- yakka tartibdagi tadbirkorlik, mikrofirmalar, kichik korxonalar, oilaviy korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklarini kengaytirish va rivojlantirish uchun.

1.12. Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish uchun, shuningdek yosh oilalarning tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish uchun beriladigan mikrokreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi darajasidan yuqori bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Boshqa holatlarda mikrokreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori "Asaka" bank (OAJ) Aktiv va passivlarni boshqarish qo'mitasining majlis bayonnomasida belgilangan miqdorda o'rnatiladi. (Hukumat qarorlariga asosan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, shu jumladan oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlari yaratish bilan bog'liq dasturlariga kiritilgan loyihalar bundan mustasno).

1.13. Zarar ko'rib ishlayotgan, nolikvid balansga ega bo'lgan qarz oluvchilarga kredit berilmaydi, ilgari berilgan ssudalar e'sa, belgilangan tartibda muddatidan oldin

undirishga taqdim etiladi. Ushbu qoida kredit shartnomasida majburiy tartibda ta'kidlanishi kerak.

II. Mikro kreditlarni rasmiylashtirish tartibi

2.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari bo'lgan qarz oluvchilar mikro kredit olish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

1) mikro kredit olish uchun so'ralayotgan mikro kredit miqdori, muddati, ta'minoti va maqsadi ko'rsatilgan ariza;

2) qarz oluvchining olinayotgan kreditdan foydalanish maqsadlari va bank hisobvarag'iga pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holda tuzilgan biznes-reja;

3) qarz oluvchining ro'yxatdan o'tgan joyi bo'yicha davlat soliq inspekciasining balansni qabul qilganlik to'g'risidagi belgisi qo'yilgan holda ohirgi hisobot davri uchun buhgalteriya balans (1-son shakl), moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-son shakl) - bundan dehqon xo'jaliklari, oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno;

4) mazkur Tartibning 2.4. - bandida ko'rsatilgan mikro kreditni qaytarishni ta'minlash shakllaridan biri.

2.2. Chorvachilikni rivojlantirish maqsadida shaxsiy yordamchi xo'jalik yurituvchi jismoniy shaxs yoki dehqon xo'jaligi boshlig'i, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish hamda ixcham issiqxonalar qurish maqsadida mikro kredit olish uchun shaxsiy yordamchi xo'jaligi yurituvchi jismoniy shaxs tomonidan bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

1) chorvachilikni rivojlantirish, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish uchun mikro kredit berishni so'rab yozilgan ariza;

2) mahalla, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini Kengashi raisi tomonidan imzolangan, belgilangan tartibda berilgan sanasi va raqami qayd etilgan hamda gerbli muhr bilan tasdiqlangan, ushbu mikro kreditni oluvchi jismoniy shaxsga chorvachilikni rivojlantirish yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish uchun bank tomonidan mikro kredit berilishiga tavsiyanomasi, shuningdek mikro kredit oluvchi shaxsiy yordamchi xo'jalik yurituvchi jismoniy shaxsda tomorqa uchastkasi mavjudligi hamda uning maydoni ko'rsatilgan ma'lumotnoma;

3) mazkur Tartibning 2.4. - bandida ko'rsatilgan mikro kreditni qaytarishni ta'minlash shakllaridan biri.

4) Shaxsiy yordamchi xo'jalik yurituvchi jismoniy shaxs yoki dehqon xo'jaligi boshlig'i o'z pasportini shaxsan ko'rsatadi hamda undan nusxa taqdim etadi. Dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatiga olinganligi to'g'risidagi ro'yxatga oluvchi organ tomonidan berilgan guvohnomaning nushasi ham kredit yig'majildiga tikib qo'yilishi talab etiladi.

2.3. Mahalla, qishloq, ovul fuqarolar yig'inining Kengashi raisi tomonidan chorvachilikni rivojlantirish uchun bank tomonidan kredit berilishi to'g'risidagi tavsiyanomada shaxsiy yordamchi xo'jaligi yoki dehqon xo'jaligida qoramol boqish uchun sharoit mavjudligi, ushbu oila kam ta'minlangan oila e'kanligi, uning tarkibida doimiy ish joyiga ega bo'lmagan oila a'zolari mavjudligi alohida ta'kidlanishi lozim.

2.4. Qarz oluvchilar mikro kreditlarni qaytarilishini ta'minoti sifatida bankka quyidagi ta'minot turlaridan birini taqdim etishlari lozim:

- mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi;

- bank yoki sug'urta tashkilotining kafolati;

- uchinchi shaxslar kafilligi;

- sug'urta kompaniyasining qarz oluvchi tomonidan olingan kreditni qaytarilmaslik hatarining bank-benefitsiar foydasiga sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi.

Bunda ta'minot tarkibi va garov ta'minotini rasmiylashtirish ishlari "Asaka" bank (OAJ) Boshqaruvining 2012 yil 23 maydagi 127-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlanib,

490-son bilan ro'yxatga olingan "Asaka" bank (OAJ) tizimida garov mulkini tanlab olish va garov bahosini kelishish Tartibi"ga asosan amalga oshiriladi.

2.5. Bank filiali tomonidan faqat qoniqarli kredit tarihiga, bank hisobraqamida muntazam pul oqimiga ega bo'lgan va avval olingan kreditlar hamda hisoblangan foizlarni o'z vaqtida to'lagan qarz oluvchilarga, mazkur Tartibning 2.4.-bandida ko'rsatilgan ta'minotni taqdim etmasdan, blankli (ishonchli) mikro kreditlar berilishi mumkin.

2.6. Mol-mulk garovi mikro kreditning qaytarishni ta'minlash shakllaridan biri hisoblanadi. Har qanday mol-mulk, shu jumladan, ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar), e'ркиn almashtiriladigan valyuta va O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq garov ashyosi bo'la oladigan boshqa buyumlar garov ashyosi bo'lishi mumkin, bundan muomaladan chiqarilgan mol-mulk mustasno.

Garovga qo'yilayotgan mol-mulk belgilangan tartibda baholanishi va uning bozor qiymati uni sotish kerak bo'lgan paytda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xarajatlarni qoplashga etarli bo'lishi zarur.

2.7. Beriladigan mikro kredit summasi garovga qo'yilgan mol-mulk qiymatining 80 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas. Garov buyumlari - transport vositalari va ko'chmas mulk ob'ektlari - yo'qotish va ziyon etkazilishi hodisalaridan qarz oluvchi hisobiga sug'urta qilinishi kerak.

Kredit hisobiga sotib olinadigan qiymatning 80 foizi miqdoridagi mol-mulk ham ushbu kredit bo'yicha garov predmeti bo'lib xizmat qilishi mumkin.

2.8. YUqori likvidlikka ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar ham garov buyumi bo'lishi mumkin. Garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar tegishli shartnoma bilan rasmiylashtiriladi (bankning G'aznachilik departamenti xulosasiga asosan) va qarz to'liq qaytarilgunga qadar saqlash uchun bankka o'tkazilishi kerak.

2.9. Kreditning ta'minoti sifatida mol-mulk garovi bo'yicha tuziladigan shartnomalar qonunda nazarda tutilgan hollarda notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

2.10. Kafolat Fuqarolik kodeksining 299-moddasiga muvofiq kafolat beruvchining yozma majburiyati shaklida rasmiylashtiriladi.

2.11. Kafillik Fuqarolik kodeksining 292-moddasiga muvofiq bank foydasiga kafil va qarz oluvchi o'rtasida yozma shaklda 3 (uch) nushada tuziladigan kafillik shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu shartnomaning ohirgi betida kafil va qarz oluvchi imzolaridan keyin, bank tomonidan mazkur kafillik qabul qilinganligi to'g'risida bank filiali boshqaruvchisi tomonidan imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan yozuv qayd etiladi.

2.12. Kredit yig'majildini tahlil qilish jarayonida bank kredit bitimining turli jihatlari, qarz oluvchining kredit tarihini, ilgari olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytarish ta'minlanganligi va hokazolarni baholashni amalga oshiradi.

2.13. Mikro kredit so'rab, mazkur Tartibning 2.1. va 2.2.-bandlarida ko'rsatilgan barcha zarur hujjatlar ilova qilingan holda berilgan ariza bankka kelib tushgan kundan boshlab, bank filiali kredit qo'mitasi tomonidan ushbu ariza bo'yicha qaror qabul qilish muddati 3 bank kunidan oshmasligi lozim.

Mikro kredit berish asoslantirilgan holda rad etilgan taqdirda, bank filiali arizachiga bu haqda keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda yozma shaklda ma'lum qilishi shart.

Mikro kredit berish to'g'risidagi ijobiy qaror kredit qo'mitasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi tomonidan ma'qullanishi kerak.

2.14. Bank filiali kredit qo'mitasining qarori mikro kreditlarni berish yoki bermaslik uchun asos bo'lib hisoblanadi.

2.15. Mikro kredit berish to'g'risida qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab qarz oluvchiga kredit varaqchasi ochiladi va uning yordamida kredit ustidan nazorat amalga oshiriladi.

2.16. Kredit qo'mitasining ijobiy qarori asosida qarz oluvchi bilan kredit shartnomasi tuziladi.

2.17. Bank filiali va qarz oluvchi o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- kredit summasi;
- kredit muddati;
- kredit uchun foiz stavkasi miqdori;
- kreditning maqsadi;
- kredit ta'minotiga oid ma'lumotlar;
- tomonlarning huquq va majburiyatlari;
- tomonlarning javobgarligi;
- qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shartlar.

2.18. Kredit shartnomasi tuzilganidan keyin bank filialining rahbari yoki kredit bo'limi boshlig'i (xodimi) o'z vakolatlari doirasida muddat va foiz stavkasini ko'rsatgan holda, ssuda hisobvarag'ini ochish to'g'risida buxgalteriya bo'limiga farmoyish beradi.

III. Mikrokreditlarni berish va qaytarish tartibi

3.1. Mikrokreditlar qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan uning to'lov topshiriqnomasiga asosan, kredit shartnomasida belgilangan maqsadlar uchun tegishli tashkilotlarning bankdagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

CHorvachilikni rivojlantirish uchun shaxsiy yordamchi xo'jalik yurituvchi jismoniy shaxslar va dehqon xo'jaliklariga mikrokreditlar qarz oluvchining hohishiga ko'ra naqd pul shaklida berilishi mumkin.

3.2. Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun beriladigan mikrokreditlar miqdori eng kam ish haqining 80 baravarigacha bo'lgan mablag'ni tashkil etadi.

Mazkur mikrokreditlar faqat kam ta'minlangan oilalarga beriladi. Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarini kam ta'minlangan oilalar sifatida e'tirof etish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

CHorvachilikni rivojlantirish uchun kam ta'minlangan oilalarga mikrokreditlar ajratishga mahalla, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini Kengashlari tavsiyanomalari asos bo'lib xizmat qiladi.

3.3. Shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish uchun beriladigan mikrokreditlar miqdori eng kam ish haqining 100 baravarigachani tashkil etadi.

3.4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hamda dehqon va fermer xo'jaliklariga berilgan mikrokreditlar, kreditlash muddatiga bog'liq holda 12601-conli "Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar", 13101-sonli "Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar" va 15501-sonli "Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar" balans hisobvaraqlarida, shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga berilgan mikrokreditlar hisobi 14901-sonli "Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar" balans hisobvaraqlarida va dehqon xo'jaliklariga berilgan mikrokreditlarning hisobi 15001-sonli "Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar" balans hisobvaraqlarida yuritiladi.

3.5. Alohida ssuda hisobvaraqlari bo'yicha berilgan kreditlar kredit xodimining farmoyishiga binoan muddatli majburiyatnomalar bilan rasmiylashtiriladi, ular to'liq so'ndirilishiga qadar kreditlash muddatlariga bog'liq holda 91901 "Qisqa muddatli kreditlar bo'yicha qarz oluvchilarning majburiyatlari", 91905 "Uzoq muddatli kreditlar va lizinglar bo'yicha qarz oluvchilarning majburiyatlari" deb nomlangan ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida hisobga olinadi.

Kredit qisman so'ndirilganda bu haqdagi yozuv muddatli majburiyatnomaning orqa qismiga qayd qilib boriladi.

3.6. Mikrokreditni so'ndirish muddatlari grafik ko'rinishida taqdim etilishi mumkin, unda so'ndirish pul oqimlarining kelib tushish istiqboliga bog'liq holda bir necha bosqichlar bilan o'tkazilishi ko'zda tutiladi.

3.7. Shaxsiy yordamchi xo'jalik yurituvchi jismoniy shaxs tomonidan mikrokredit va unga hisoblangan foizlarni to'lash bank kassasiga naqd pul topshirish yoki qarz oluvchining omonat hisobvarag'idan pul o'tkazib berish yohud bank plastik kartochkalari orqali amalga oshiriladi.

Chorvachilikni rivojlantirish uchun dehqon xo'jaligi olgan mikrokreditning naqd pulda olingan qismi va unga hisoblangan foizlar to'lovini bank kassasiga naqd pul topshirish yo'li bilan amalga oshiradi.

3.8. Qarz oluvchi olingan mikrokreditni muddatidan ilgari qaytarishga va undan haqiqatda foydalanilgan muddat uchun hisoblangan foizlarni to'lashga haqli.

3.9. Mikrokreditlarni qaytarish muddati kelgan vaqtda qarzdorning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida kreditni qaytarish uchun mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, mazkur kredit muddati o'tgan ssudalar hisobvarag'iga o'tkaziladi, ular bo'yicha muddatli majburiyatnomalar to'lovi esa, 2-son kartoteka orqali kalendar' navbatida amalga oshiriladi.

3.10. Mikrokredit belgilangan muddatlarda qaytarilmagan taqdirda, bank filiali undiruvni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mikrokreditning qaytarilish ta'minoti sifatida taqdim etilgan ta'minot shakliga qaratadi. Ushbu holatda bank Fuqarolik kodeksi 280-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq sudga murojaat etmasdan turib, undirishni mustaqil ravishda garov predmetiga qaratishga haqlidir.

3.11. Qarz oluvchining ta'minoti mikrokredit bo'yicha asosiy qarzdorlik va unga hisoblangan foizlarni qaytarishga etmagan taqdirda bank, mazkur qarzni qaytarishni qarz oluvchining likvidli mol-mulki, shu jumladan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari, transport vositalari, kompyuter hamda korxonalar va tashkilotlarning boshqa likvidli aktivlari hisobiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 4 dekabrda 422-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Banklarni kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish Tartibi"ga muvofiq amalga oshirishi mumkin.

IV. Ajratilgan mikrokreditlarni monitoring qilish va maqsadli ishlatilishini nazorat qilish tartibi

4.1. Kredit shartnomasi shartlari bajarilishini ta'minlash, olingan mikrokreditdan qarz oluvchi samarali foydalanishi, mikrokreditdan foydalanishning butun muddati davomida uning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi maqsadida bankning mas'ul xodimi tomonidan monitoring olib boriladi. Monitoring qarz oluvchining loyihasi va kredit shartnomasi shartlarini bajarish uchun har tomonlama yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

4.2. Monitoring jarayonida mijozning xo'jalik-moliyaviy faoliyati, uning tuzilgan shartnoma (buyurtma)lar asosida mahsulot etkazib berish majburiyatlarini bajarishi, ishlab chiqarish hajmi, noishlab chiqarish xarajatlari va talofatlar, foyda hajmlari, o'z aylanma mablag'lari mavjudligi dinamikasi, tovar-moddiy boyliklar zahirasi holati, oborot mablag'larining aylanuvchanligi tahlil qilinadi. Shuningdek, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining kreditga layoqatlilik darajasi bo'yicha doimiy monitoringni amalga oshiradi.

4.3. Joyning o'zida bank filialining mas'ul xodimi tomonidan bankka berilgan garovning holati hamda (shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun hamda shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish uchun berilgan mikrokreditlar bo'yicha fuqarolar yig'inining

mahalla, qishloq, ovul Kengashi mas'ul xodimi ishtirokida) mikrokreditdan samarali va maqsadli foydalanishning ahvoli yuzasidan har chorakda kamida bir marta tekshirish o'tkaziladi.

4.4. Monitoring davomida mas'ul xodim qarz oluvchi bilan uzluksiz aloqa o'rnatadi, joyning o'zida uning rejalarini o'rganadi, shuningdek qarz oluvchining faoliyatidagi salbiy tendenciyalarni ilk bosqichida aniqlaydi.

Olib boriladigan monitoring natijalari qarz oluvchining maxsus shaxsiy hujjatlar to'plamida tizimlashtiriladi.

4.5. Olingan mikrokreditlardan qarz oluvchilar tomonidan boshqa maqsadlarda foydalanish holatlari aniqlangan taqdirda, bank qarzdorni bundan keyin kreditlashni rad etishga, mikrokreditning boshqa maqsadda foydalanilgan qismini kredit shartnomasida belgilangan tartibda qarz oluvchining talab qilib olinadigan depozit hisob raqamidan muddatidan oldin undirib olish va kredit shartnomasida belgilangan miqdorda jarima undirish huquqiga egadir.

V. Yakuniy qoida

5.1. Bank tomonidan beriladigan mikrokreditlar bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlarga zaxiralarni shakllantirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 11 fevralda 632-son bilan ro'yxatga olingan "Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha e'htimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish Tartibi"ga muvofiq amalga oshiriladi.

5.2. Mazkur Tartib amalga kiritilishi bilan "Asaka" bank (OAJ) Boshqaruvining 2007 yil 30 oktyabrdagi 65-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlanib, 345-1-son bilan ro'yxatga olingan "“Asaka” davlat aktsiyadorlik-tijorat banki (ochiq aktsiyadorlik jamiyati) tomonidan mikrokredit (yakka tartibdagi tadbirkorlarga va dehqon, fermer xo'jaliklariga) berish Tartibi" o'z kuchini yo'qotadi.

***Mazkur tartib "Asaka" bank Boshqaruvining 2012 yil 27 dekabrda
382-sonli bayoni bilan tasdiqlangan, 516-son bilan ro'yxatga olingan.***